

ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING INSTITUTIONAL-FISKAL TRANSFORMATSIYASI VA INNOVATSION RIVOJLANISHDAGI STRATEGIK ROLI

PhD **Kuziev Ravshan**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0000-0001-8096-2928

Ravshan8282@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) institutsional-fiskal transformatsiyasi va innovatsion rivojlanishdagi strategik o'rni chuqur tahlil qilingan. Muallif jahon va milliy tajriba asosida EIHLarning nazariy asoslari, fiskal va bojxona preferensiyalari, klasterlashgan iqtisodiy model, raqamli infratuzilma va "yashil" texnologiyalar integratsiyasi bo'yicha ilmiy yondashuvlarni tahlil qiladi. Tadqiqotda EIHLarning rivojlanish genezisi, ularning iqtisodiy erkinlashtirish siyosatidagi markaziy o'rni hamda xalqaro integratsiya jarayonlaridagi roli ochib beriladi. Maqolada soliq imtiyozlari bilan bir qatorda, boshqaruv tizimining shaffofligi, institutsional uyg'unlik, innovatsion ishlab chiqarish klasterlari va malakali kadrlar tayyorlash mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan. Natijada, EIHLar nafaqat investitsiya jalb etish vositasi, balki texnologik mustaqillik, iqtisodiy suverenitet va global raqobatbardoshlikni oshirish omili sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy hududlar, institutsional-fiskal transformatsiya, klasterlashgan iqtisodiyot, raqamli infratuzilma, yashil iqtisodiyot, xalqaro integratsiya.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ФИСКАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН И ИХ СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ

PhD **Кузиев Равшан**

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проводится углублённый анализ институционально-фискальной трансформации свободных экономических зон (СЭЗ) и их стратегической роли в инновационном развитии. На основе мирового и национального опыта рассматриваются теоретические основы СЭЗ, налоговые и таможенные преференции, кластерная экономическая модель, цифровая инфраструктура и интеграция «зелёных» технологий. Исследование раскрывает генезис развития СЭЗ, их ключевую роль в политике экономической либерализации и международной интеграции. Подчёркивается, что помимо налоговых льгот, важными факторами эффективности являются прозрачность управления, институциональная согласованность, создание инновационных производственных кластеров и подготовка квалифицированных кадров. В результате СЭЗ рассматриваются как инструмент не только привлечения инвестиций, но и укрепления технологической независимости, экономического суверенитета и повышения глобальной конкурентоспособности.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, институционально-фискальная трансформация, кластерная экономика, цифровая инфраструктура, зелёная экономика, международная интеграция.

INSTITUTIONAL-FISCAL TRANSFORMATION OF FREE ECONOMIC ZONES AND THEIR STRATEGIC ROLE IN INNOVATIVE DEVELOPMENT

PhD **Kuziev Ravshan**

The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the institutional-fiscal transformation of Special Economic Zones (SEZs) and their strategic role in innovative development. Drawing on both global and national experience, it examines the theoretical foundations of SEZs, tax and customs preferences, cluster-based economic models, digital infrastructure, and the integration of green technologies. The study explores the genesis of SEZ development, their central role in economic liberalization policies, and their position within international integration processes. It highlights that beyond tax incentives, key determinants of SEZ effectiveness include transparent governance, institutional coherence, the formation of innovative production clusters, and the development of skilled human capital. Ultimately, SEZs are positioned not only as tools for attracting investment but also as drivers of technological independence, economic sovereignty, and enhanced global competitiveness.*

Keywords: *special economic zones, institutional-fiscal transformation, cluster-based economy, digital infrastructure, green economy, international integration.*

Kirish.

Milliy iqtisodiyotning globallashuv sharoitidagi integratsiyasini ta'minlash hamda transchegaraviy kapital oqimlarini jalb etishni faollashtirish maqsadida davlat tomonidan yangicha iqtisodiy mexanizmlar majmuasi qo'llaniladi. Ushbu mexanizmlar ichida investitsiya ekotizimini o'zgartiruvchi strategik maydon sifatida erkin iqtisodiy hududlar (EIH) alohida o'rin egallaydi. EIHlar orqali bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yo'naltirilgan rag'batlar asosida soliq va bojxona yengilliklari, institutsional soddalashtirish hamda yuqori bog'liqlik darajasi yaratiladi.

Erkin iqtisodiy hududlar iqtisodiy erkinlashtirish siyosatining markaziy elementi bo'lib, ular yangilikka asoslangan tajriba maydonlari tamoyillariga tayangan. Bu hududlarda davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuv darajasi minimal bo'lib, tartibga solishdagi nomutanosiblik orqali investorlar uchun maqbul fiskal va institutsional muhit shakllantiriladi. Natijada, EIHlar yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yuvchi texnologik klasterlar sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, EIHlar ochiq iqtisodiy modelni hayotga tatbiq etishda jahon iqtisodiyotiga eshik sifatida xizmat qiladi. Ularning faoliyat yondashuvi eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, yuqori texnologik o'zgarishlar va tashqi iqtisodiy aloqalarning tezlashuvchanligi bilan xarakterlanadi. Ular bojxona, soliq va investitsion rejimlarning farqlashtirilgan shakllarini qo'llagan holda kapitalni jalb qiluvchi hududlar sifatida strategik ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, erkin iqtisodiy hududlar jahon kapital harakatchanligi uchun institutsional markaz bo'lib xizmat qiluvchi zamonaviy iqtisodiy shaklga aylanmoqda. Ular orqali nafaqat investitsiya oqimlari yaxshilanadi, balki yangilikka asoslangan infratuzilma rivojlanadi va iqtisodiyotning texnologik tarmoqlarga bo'linishi jadallashadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mazkur yo'nalishda xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular orasida polemik qarashlar ham mavjud. Masalan, Paul Krugman (1991) (AQSh, Nobel mukofoti sohibi) fikriga ko'ra: "Erkin iqtisodiy hududlar transport xarajatlarini kamaytirish va resurslarni markazlashtirish orqali tarmoq effektlarini yuzaga keltiradi. Ammo ular milliy iqtisodiyotning ichki disbalanslarini kuchaytirishi mumkin". Olim fikrining izohi

shundan iboratki, EIHLar iqtisodiy o'sishni markazlashtirishga xizmat qilsa-da, mintaqalar o'rtasidagi tengsizlikni kuchaytirish xavfi mavjud.

Sobiq BMT Bosh iqtisodchisi, Xitoylik olim Justin Yifu Lin (2019) fikriga ko'ra: "EIHLar Xitoy iqtisodiyotida tashqi investitsiya va texnologiyalar importini ta'minlovchi hal qiluvchi institutsional mexanizm bo'ldi. Ammo bu model boshqa mamlakatlarga ko'r-ko'rona ko'chirib bo'lmaydi". Uning nazariy yondashuviga ko'ra, EIHLar har bir mamlakatning institutsional salohiyati va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim. Jahon banki mutaxassisi Douglas Zhihua Zeng (2011) fikriga ko'ra: "EIHning muvaffaqiyati uchun soliq imtiyozlaridan ko'ra institutsional sharoit, logistika, kadrlar salohiyati va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari muhim. Soliqlar bu jarayonda faqat bir omil xolos". Ushbu yondashuvga ko'ra, institutsional sifat, infratuzilma va tashqi bozorlarga integratsiya EIHning haqiqiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Jenevalik olim Richard Baldwin (2021) fikriga ko'ra: "Zamonaviy EIHLar raqamli va transmilliy zanjirlarda o'z o'rnini topa olishi lozim. Agar ular faqatgina soliq imtiyozlari bilan cheklansa, global raqobatda yutqazish ehtimoli katta". Uning qarashicha, raqamli transformasiya va ye-kommersiya imkoniyatlarini hisobga olmagan EIHLar kelajakda o'z dolzarbligini yo'qotishi mumkin. Jahon banki olimi Thomas Farole (2011) fikriga ko'ra: "EIHLar samarador bo'lishi uchun ular milliy islohotlar ichida uyg'un bo'lishi kerak". Fikrdan kelib chiqib, EIHLar faqatgina soliq va huquqiy imtiyozlarga emas, balki milliy iqtisodiyotga to'liq integratsiyalangan holda faoliyat yuritishi zarur.

Mazkur xalqaro yondashuvlar asosida mahalliy olimlar ham EIHLar xususida o'z qarashlarini ilgari surganlar. Qoraboyev va Inamovalarning (2023) ta'kidlashicha: "Erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun yaratilgan soliq va bojxona imtiyozlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, eksportbop mahsulotlar hajmini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu imtiyozlar infratuzilma rivoji va kadrlar salohiyati bilan uyg'unlashgandagina samarali bo'ladi". Shuningdek, Rashidov (2022) fikriga ko'ra: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishda milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga integratsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahalliy qo'shilgan qiymat ulushini oshirish uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlaydi".

Tahlil va natijalar muhokamasi.

"Erkin iqtisodiy hududlar – bu ma'lum geoiqtisodiy zonalarda shakllantirilgan, diferensial fiskal rejimlar, bojxona yengilliklari va soddalashtirilgan regulativ infratuzilma asosida faoliyat yurituvchi kompleks iqtisodiy platformalardir. Ular ichki va transchegaraviy investitsiyalar uchun institutsional xavfsiz maskan vazifasini bajarib, industrial transformatsiya, xizmatlar sektori diversifikatsiyasi va mehnat bozorini kengaytirish bo'yicha multidimensional funksiyalarni bajaradi".

EIHLar iqtisodiy erkinlik, sarmoyani qulaylashtirish ekotizimi va fiskal rag'batlantirish prinsiplariga tayangan holda dizayn qilinadi. Ular global iqtisodiyotdagi "competitive advantage zones" sifatida, kapital oqimini optimallashtirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarishni jalb etishga xizmat qiladi.

Mazkur hududlarning nazariy genezisi ilk bor merkantilist va klassik iqtisod maktablari doirasida tashqi savdoni erkinlashtirish va sarmoya oqimlarini rag'batlantirish paradigmasi asosida shakllangan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda EIHLar rivojlanish akseleratori sifatida iqtisodiy yuksalishni jadallashtirdi.

Bugungi bosqichda erkin iqtisodiy hududlar innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosatining muhim vektoriga aylanmoqda. Ularning zahirida tarmoqlararo sinergetika, adaptiv boshqaruv tizimi va raqamli xizmatlar arxitekturasi asosida shakllanayotgan yangi avlod iqtisodiy model yotadi.

Endilikda EIHLar faqat soliq imtiyozlari beriladigan hudud sifatidagina emas, balki iqtisodiyotni strukturaviy qayta formatlash, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish markazlarini shakllantirish va innovatsion logistika uzellarini rivojlantirishning ko'p funksiyali platformasi sifatida qaralmoqda. Bunday hududlarda iqtisodiy faoliyat "komplementar tizimlar" asosida uyg'unlashib, hududiy sanoat-iqtisodiy klasterlar barpo etiladi. Boshqaruv mexanizmlari esa ishtirokchilararo muvofiqlik, iqtisodiy muhitga moslashuvchanlik va shaffoflik mezonlariga asoslangan holda takomillashtirilmoqda.

Natijada, erkin iqtisodiy hududlar zamonaviy iqtisodiyotni qayta modellashtirishda strategik muvozanat nuqtasi (asosiy ta'sir chorrahasi) sifatida xizmat qilmoqda. Ular orqali nafaqat innovatsion kapital oqimlari jalb qilinadi, balki iqtisodiy suverenitet va texnologik mustaqillikning asoslari mustahkamlanadi.

Erkin iqtisodiy hududlar konsepsiyasining nazariy asoslari va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni turli mamlakat olimlari tomonidan turlicha talqin etilgan. EIHLarning mohiyati, maqsadlari, institutsional mexanizmlari va soliq siyosatidagi o'rniga oid ilmiy yondashuvlar ko'p qirrali va ko'p jihatli bo'lib, ularning asosida iqtisodiy geografiya, institutsional iqtisod, raqamli transformatsiya, fiskal raqobat va global qiymat zanjirlari kabi nazariy maktablar yotadi.

Shu bilan, EIHLar nafaqat soliq imtiyozlari manbai, balki institutsional rivojlanish, klasterlashgan iqtisodiy model va raqamli infratuzilmani shakllantirish vositasi sifatida strategik ahamiyatga ega ekani ilmiy nuqtai nazardan o'z tasdig'ini topadi. Soliq imtiyozlari, albatta, investorlar uchun dastlabki jalb etuvchi omil sifatida muhim bo'lib, ular ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, kapital oqimini tezlashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Biroq zamonaviy iqtisodiyot sharoitida faqatgina fiskal preferensiyalarga tayanish yetarli emas, chunki bunday yondashuv uzoq muddatda samarasizlikka, soliq bazasining qisqarishiga va davlat byudjeti uchun xavfli holatlarga olib kelishi mumkin.

Ilg'or xalqaro va mahalliy ilmiy fikrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, EIHLarning barqaror va samarali faoliyatini ta'minlash uchun ularni keng qamrovli institutsional tizim doirasida ko'rish talab etiladi. Ya'ni, EIHLar davlat boshqaruvi, huquqiy kafolatlar, moliyaviy xizmatlar, eksport infratuzilmasi va kadrlar tayyorlash tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda rivojlantirilishi lozim. Institutsional uyg'unlik hududlar samaradorligini oshiradi, boshqaruv shaffofligini ta'minlaydi va investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, klasterlashgan iqtisodiy model EIHLar samaradorligining yana bir asosiy sharti hisoblanadi. Tarmoqlararo kooperatsiya, lokal ta'minot zanjirlari, tarmoq sinergiyasi va sohalar o'rtasidagi innovatsion aloqalar ushbu hududlarning ichki iqtisodiy tuzilishini mustahkamlaydi. Masalan, logistika, yuqori texnologiyalar, qayta ishlash sanoati va eksport xizmatlari bir hududda jamlanganda, iqtisodiy multiplikatorlar yuzaga keladi va butun hududiy islohotlar tizimi faollashadi.

Zamonaviy sharoitda EIHLarning raqamli infratuzilma bilan ta'minlanganligi ularning global raqobatdagi pozitsiyasini belgilab beradi. Elektron hukumat xizmatlari, raqamli soliq monitoringi, elektron logistika tizimlari, intellektual eksport platformalari kabi instrumentlar EIHLarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, ma'lumotlar shaffofligini, soliq tushumlarining oshishini va investitsiya muhitining raqamli shaffofligini ta'minlaydi.

Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) evolyutsiyasi qadimgi sivilizatsiyalar bosqichlaridan boshlab, bugungi zamonaviy iqtisodiy infratuzilmalar shakllanishigacha bo'lgan murakkab bosqichlarni o'z ichiga oladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, eramizdan avvalgi II asrda, miloddan avvalgi 166-yilda, Delos orolida shakllangan birinchi rasmiylashtirilgan erkin savdo hududi — zamonaviy EIZlarning ilk prototipi sifatida ko'riladi. Ushbu hududda savdo subyektlari bojxona to'lovlari, fiskal majburiyatlar va byurokratik cheklovlardan ozod etilgan holda faoliyat yuritgan.


Erkin iqtisodiy hududlarning zamonaviy bosqichdagi qayta tiklanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda EIHlar iqtisodiy transformatsiyaning funksional vositasi sifatida rivojlangan davlatlarda ham, endilikda iqtisodiy suverenitetga ega bo'lgan yangi davlatlarda ham faol qo'llanila boshlandi. Ayniqsa, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda EIHlar institutsional islohotlarning katalizatoriga aylandi.

Bunday hududlarning ommaviy shakllanishiga bir nechta global xarakterga ega bo'lgan tizimli omillar turtki bo'lgan:

- yangi mustaqil davlatlarning iqtisodiy tizimga inklyuziv integratsiyalashuvi;
- transmilliy hamkorlik asosida yaratilgan hududiy integratsiya bloklari sonining ko'payishi;
- yangi industrial davlatlarning jahon xo'jalik tizimiga faol va tezkor kirib kelishi;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tezlashuvi, texnogen innovatsiyalarning kuchayishi va xalqaro raqobat muhitining kuchayib borishi.

Mazkur omillar EIHlarning global iqtisodiy infratuzilma sifatida shakllanishida gibril modelga asoslangan yondashuvni yuzaga keltirdi — ya'ni, ular bir vaqtning o'zida fiskal yengilliklar, eksport orientatsiyasi, ilg'or texnologiyalarni jalb qilish va institutsional soddalashtirish vositasi sifatida amal qila boshladi.

Mamlakatda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning quyidagi asosiy maqsadlarini ajratib ko'rsatish mumkin:



1-rasm. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish maqsadlari

Jahon iqtisodiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar, ya'ni erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat zonalar (KSZ) – turli strategik maqsadlar asosida shakllantiriladi va ularning tashkil etilishida turli darajadagi iqtisodiy funktsional yuklamalar mujassam bo'ladi.

Birinchidan, EIZ va KSZlarning shakllanishidagi asosiy vektor – tashqi savdoni rivojlantirish va valyuta tushumlarini ko'paytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Bunda eksportga yo'naltirilgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish orqali milliy iqtisodiyotning valyuta rezervlari mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, EIZ va KSZlar import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish orqali ichki bozorning resursga bo'lgan ehtiyojini lokal asosda ta'minlaydi. Bu esa endogen ishlab chiqarish bazasini kengaytirish, iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash va mahalliy iste'molchilarni yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni nazarda tutadi.

Uchinchidan, EIZ va KSZlar "multisektorli integratsion model" asosida tashkil etilib, xalqaro mehnat taqsimotida tovar ishlab chiqarish tarmoqlari bilan birgalikda xizmatlar sektori — xususan, turizm, madaniyat, sog'lomlashtirish va rekreatsion yo'nalishlarni uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zonalarini hududlararo ixtisoslashuvga asoslangan kompleks iqtisodiy tizim sifatida ko'rishga imkon yaratadi.

To'rtinchidan, ushbu maxsus iqtisodiy hududlar iqtisodiy inqirozga uchragan yoki strukturaviy muammolar mavjud bo'lgan hududlarda "terapiya rejimi" asosida iqtisodiy faollikni tiklash vositasi sifatida shakllantiriladi. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada bunday zonalar XX asrning 80-yillarida iqtisodiy depressiyaga uchragan hududlarda kichik va o'rta tadbirkorlikni rag'batlantirish vositasi sifatida qo'llanilgan.

Beshinchidan, EIZlar xorijiy ilg'or texnologiyalar va milliy ilmiy-texnik ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish orqali "innovatsion translatsiya maydoni" sifatida xizmat qiladi. Bunda yuqori texnologik yechimlar avvalo zonalarida sinovdan o'tkazilib, keyinchalik butun milliy iqtisodiy tizimga yoyilishi ta'minlanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat hududlarini tashkil etishning strategik funksiyalari zamonaviy texnologik rivojlanish va ilmiy innovatsiyalar asosida shakllanmoqda. Ushbu maxsus iqtisodiy tuzilmalar quyidagi ustuvor vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan:

Birinchidan, yangi avlod texnologiyalarining tezkor adaptatsiyasi va ilmiy-tadqiqot natijalarining real sektor amaliyotiga integratsiyasini jadallashtirish orqali iqtisodiyotni texnogen modernizatsiyalash. Bunda xorijiy va mahalliy innovatsion echimlarning joriy etilishi texnologik suverenitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ustuvor iqtisodiy yo'nalishlarga fan-texnika salohiyatini jalb qilish, xususan, xorijiy ilmiy kadrlar, muhandislar va texnologik mutaxassislar ishtirokida "ko'pvektorli bilim translatsiyasi"ni yo'lga qo'yish orqali ixtisoslashgan ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish.

Uchinchidan, zamonaviy ilmiy-innovatsion infratuzilmani rivojlantirish doirasida ilmiy-texnik markazlar, startaplar va tajriba asosida rivojlangan kichik korxonalar (venchur shakllar) tajribasini keng joriy etish. Bu orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshirilib, texnologik jarayonlar jahon standartlari asosida takomillashtiriladi.

1-jadval

EIHning yo'nalishlar va ixtisoslashuvga qarab turkumlanishi

Savdo yo'nalishidagi zonalar	Ishlab chiqarish va innovatsiya yo'nalishlari	Xizmatlar va servis yo'nalishlari	Ko'p funksiyali va alohida rejimdagi hududlar
Erkin savdo zonalari	Savdo-sanoat komplekslari	Bank, sug'urta, logistika markazlari	Erkin tadbirkorlik zonalari
Erkin port va tranzit hududlar	Import o'rnini bosuvchi sanoat zonalari	Offshor xizmat hududlari	Maxsus iqtisodiy zonalar, alohida huquqiy rejimga ega
E-commerce klasterlari	Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalari	Rekreatsion va servis klasterlari	Digital hub va fintech zonalari
Trade facilitation zonalari (TFZ)	Technopark va innovatsiya markazlari	BPO (business process outsourcing) zonalari	Smart-economic zones (raqamli va yashil iqtisodiyot uchun)

Manba: jadval muallif tomonidan tuzildi.

Xorijiy kapital oqimlarini milliy iqtisodiyotga jalb qilishda erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalari institutsional muvozanatni ta'minlovchi samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Bugungi global iqtisodiy amaliyotda xalqaro tovar ayirboshlash hajmining salmoqli qismi – ya'ni taxminan 10 foizi aynan bunday maxsus iqtisodiy hududlar orqali amalga oshirilmogda, bu esa ularning xalqaro iqtisodiy tizimdagi real ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur zonalarining tarixiy jihatdan dastlabki funksional modeli — erkin savdo hududlari shaklida namoyon bo'lgan. Bu kabi zonalar asosan transport-logistika chorrahalarida, ya'ni dengiz portlari, havo bandargohlari yoki ularga tutash strategik yo'nalishlarda tashkil etilgan bo'lib, milliy bojxona hududidan tashqaridagi shaffof iqtisodiy operatsiyalar maydonini ifodalaydi.

Ushbu zonalarda mahsulotlarni vaqtincha saqlash, saralash, qayta markalash va qadoqlash kabi operatsiyalar amalga oshiriladi. Bunday iqtisodiy maydonlar kapital talabining nisbatan pastligi, tezkor qaytaruvlilik koeffitsienti va investitsiyaviy xavflarning minimalligi bilan ajralib turadi. Ular global ta'minot zanjirlarining boshlang'ich nuqtasi sifatida ko'rib, iqtisodiy muhitda logistika samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy erkin iqtisodiy zonalarini o'ziga xos xususiyatli jihatlari bilan yaqindan tanishadigan bo'lsak:

1. Raqamli savdo zonalari – bu zamonaviy raqamli infratuzilma asosida shakllantirilgan, global elektron tijorat (e-commerce) va transchegaraviy onlayn savdoni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi maxsus iqtisodiy hududlardir. Bunday zonalarda elektron kontraktlar, raqamli to'lov tizimlari, tezkor logistika, bojxona nazoratining avtomatlashtirilgan tizimi va raqamli audit platformalari faol ishlaydi.

2. Ilmiy-tadqiqot va texnoparklar – bu ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va innovatsion startaplar o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytiruvchi ilmiy va iqtisodiy hududlardir. Bunday zonalarda intellektual mulk, bilimlarga asoslangan ishlab chiqarish, patentlash, tajriba-sinov laboratoriyalari va venchur moliyalashtirish tizimlari mavjud bo'ladi.

3. Innovatsion ishlab chiqarish klasterlari. Ushbu klasterlar ilg'or texnologiyalar asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan erkin zonalaridir. Ularda texnologik transfer, AR-GE faoliyati, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, sun'iy intellekt, robototexnika va aqlli tizimlar asosida sanoat jarayonlari yo'lga qo'yiladi.

4. Servis va outsourcing markazlari – bu moliyaviy xizmatlar, konsalting, biznes jarayonlarini tashqi boshqarish (BPO), axborot texnologiyalari xizmatlari (ITO), texnik qo'llab-quvvatlash va xizmat ko'rsatish markazlari faoliyat yuritadigan erkin iqtisodiy hududlardir.

5. Ko'p funksiyali va yashil iqtisodiyot zonalari – bu sanoat, logistika, xizmatlar, rekreatsiya, yashil texnologiyalar va raqamli xizmatlar faoliyatini uyg'unlashtiruvchi kompleks hududlar hisoblanadi. Ularda barqaror rivojlanish maqsadlari, "yashil" va kamuglerodli texnologiyalar, quyosh va shamol energetikasi, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy xulosalarni keltirish mumkin:

✓ Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) zamonaviy iqtisodiy siyosatning strategik vositasi bo'lib, ularning samaradorligi faqat soliq imtiyozlari bilan emas, balki institutsional uyg'unlik, raqamli infratuzilma va klasterlashgan iqtisodiy model bilan belgilanadi.

✓ Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIHlarning uzoq muddatli muvaffaqiyati milliy iqtisodiyotga to'liq integratsiya, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va innovatsion translatsiya imkoniyatlaridan foydalanish bilan bog'liq.

✓ Xalqaro amaliyotda EIHlar iqtisodiy transformatsiya va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning barqaror mexanizmi sifatida xizmat qiladi, ammo bu mexanizm har bir mamlakatning rivojlanish bosqichi va institutsional salohiyatiga moslashtirilishi lozim.

✓ EIHlar ichki va tashqi bozorlar uchun yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali iqtisodiy suverenitet va texnologik mustaqillikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

✓ Raqamli transformatsiya va "yashil" texnologiyalarni joriy etish EIHLarning global raqobatbardoshligini oshirish, shaffof investitsiya muhiti yaratish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning muhim omillari hisoblanadi.

Amaliy takliflarlar sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiqdir:

- EIHLarda soliq va bojxona imtiyozlarini raqamli boshqaruv tizimlari bilan integratsiya qilib, investitsiya jarayonlarini tezkor va shaffof boshqarish mexanizmini joriy etish.

- Innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish orqali EIHLarni yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish va eksport salohiyatini oshirish.

- EIHLarda malakali kadrlar tayyorlash markazlarini tashkil etish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni kuchaytirish orqali inson kapitali salohiyatini oshirish.

- "Yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan energetika va ekologik barqarorlik loyihalarini EIHLar faoliyatiga integratsiya qilish orqali global barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirish.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Baldwin R. (2021) *Risks and Global Supply Chains: What We Know and What We Need to Know*. NBER Working Paper No. 29444, October.

Justin Yifu Lin. (2019) *New Structural Economics: The Third Generation of Development Economics*. GEGI Working Paper No. 27.

Paul Krugman (1991). *Increasing Returns and Economic Geography*. *Journal of Political Economy*.

Qoraboyev, Sh., Inamova. (2023). *Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari*. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 1(3), 85–92. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

Rashidov, M.K. (2022). *Erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirishning jahon tajribasi*. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 2(4), 33–41. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

Thomas Farole (2011). *Special Economic Zones: What Have We Learned?*, *Economic Premise*, World Bank.

United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) (2022). *Industrial Development Report: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World*. Vienna, 2022.

World Bank (2020). *Global Economic Prospects: Special Focus on Trade and Global Value Chains*. Washington, DC.

Zeng Z. (2011) *How Do Special Economic Zones and Industrial Clusters Drive China's Rapid Development?* *World Bank Policy Research Working Paper No. 5583*, March.